



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI  
BOSHQARISH AGENTLIGINING  
YAGONA AKSIYADOR (ISHTIROKCHI) QARORI**

---

20<sup>23</sup>-yil 28 - avgust

136/09-3-qr-sonli

Toshkent shahri

**“Navoiy” erkin iqtisodiy zonasidagi direktoriyasi” aksiyadorlik  
jamiyatining 2022-yil moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida**

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonunining 58-moddasi, “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasidagi direktoriyasi” AJ kuzatuv kengashi majlisining 2022-yil 22-noyabrdagi 5-son bayoni hamda 2023-yil 18-avgustdagи 2-son bayoni qarorlariga asosan Davlat aktivlarini boshqarish agentligi **qaror qiladi**:

**1. Quyidagilar:**

“Navoiy” erkin iqtisodiy zonasidagi direktoriyasi” AJning (*keyingi o'rinnarda – jamiyat*) 2022-yil yakuni bo'yicha:

- **sof tushumi** 3,03 mld. so'mni tashkil etganligi hamda o'tgan yilning mos davri (2,77 mld. so'm)ga nisbatan 9,3 foizga ko'payganligi va belgilangan reja (3,04 mld. so'm)ga nisbatan 0,4 foizga kamayganligi;

- **mahsulot (xizmatlar) tannarxi** 1,2 mld. so'mni tashkil etganligi yoki tannarxonning sof tushumdagи ulushi 40,0 foizni tashkil etganligi bunda tannarx o'tgan yilning mos davri (41,3 foiz)ga nisbatan o'rtacha 1,3 foizga kamayganligi;

- **davr xarajatlari** 1,8 mld. so'mni tashkil etganligi va o'tgan yilning mos davri (1,6 mld. so'm)ga nisbatan 9,8 foizga, belgilangan reja (1,7 mld. so'm)ga nisbatan 5,8 foizga ko'payganligi;

- **sof foydasi** 53,7 mln. so'mni tashkil etganligi va o'tgan yilning mos davri (51,2 mln. so'm)ga nisbatan 4,8 foizga, belgilangan reja (51,2 mln. so'm)ga nisbatan 4,8 foizga ko'payganligi;

- **debitorlik qarzdorliklari** 126,8 mld. so'mni tashkil etganligi va yil boshi (125,7 mld. so'm)ga nisbatan 0,8 foizga ko'payganligi;

- **joriy kreditorlik qarzdorliklari** 137,9 mln. so'mni tashkil etganligi va yil boshi (80,4 mln. so'm)ga nisbatan 71,5 foizga ko'payganligi;

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-dekabrdagi 1013-sun qarori bilan tasdiqlangan "Davlat ishtirokidagi korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy holati tahlilini o'tkazish Reglamenti"ga asosan jamiyatning moliyaviy-iqtisodiy holati ko'rsatkichlari past rentabelliligi;

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-noyabrdagi 647-sun qaroriga asosan davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlarini kuzatuv kengashiga nomzodlarni jalb qilish [www.cns.davaktiv.uz](http://www.cns.davaktiv.uz) maxsus veb-portali orqali tanlov asosida amalga oshirilishi belgilanganligi;

jamiyatning 2022-yil yakuni bo'yicha moliyaviy hisobotlari haqqoniyligi yuzasidan "AFFAT AUDIT" MChJ auditorlik tashkiloti Zarafshon mintaqaviy auditorlik filialining ijobjiy xulosasi olinganligi;

"PROMSTROY-AUDIT" MChJ auditorlik tashkiloti tomonidan jamiyatning korporativ boshqaruv tizimi yuqori baholanganligi;

jamiyatning 2022-yil yakuni bo'yicha buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalari (foyda va zarar) jamiyat kuzatuv kengashining 2023-yil 18-avgustdagi majlisida ko'rib chiqilganligi va ma'qullanganligi **ma'lumot uchun qabul qilinsin.**

2. Jamiyatning 2022-yil moliyaviy-xo'jalik faoliyati yakuni, jumladan biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilishi holati to'g'risidagi jamiyat Bosh direktori (X. Abdullayev) hisoboti 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Jamiyatning 2022-yil yakuni bo'yicha moliyaviy hisobotlarini auditorlik tekshiruvi natijasi yuzasidan "AFFAT AUDIT" MChJning xulosasini inobatga olib, jamiyatning buxgalteriya balansi, foyda va zararlari hisob varag'i tasdiqlansin.

4. Jamiyatning 2022-yil yakunlari bo'yicha olingan 53 699 350 so'm so'f foydasi quyidagicha taqsimlansin:

- 50 foiz (26 849 670,0 so'm) jamiyat aksiyadorlariga dividend to'lash uchun;

- 5 foiz (2 684 967,5 so'm) jamiyat zahira fondiga;

- 10 foiz (5 369 935,0 so'm) jamiyatning innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga;

- 35 foiz (18 794 772,5 so'm) keyinchalik jamiyat ustav kapitaliga kapitalizatsiya qilish sharti bilan jamiyat ixtiyorida qoldirish.

5. Jamiyatning 2023-yil uchun mo'ljallangan Biznes-rejasi jamiyat kuzatuv kengashining 2022-yil 22-noyabrdagi majlisida ko'rib chiqilib, ma'qullanganligini inobatga olib, 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-noyabrdagi 647-sun qarori talablariga asosan, jamiyat kuzatuv kengashining davlat ulushi bo'yicha a'zolik o'rinaliga tanlov e'lon qilinganligini inobatga olib, jamiyatning amaldagi kuzatuv kengashi a'zolari vakolati tanlov natijalari bo'yicha saralab olinadigan nomzodlar taqdim etilgunga qadar uzaytirilsin.

**7. Jamiyat Bosh direktori X. Abdullayev:**

jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini yaxshilash, 2023-yilga mo'ljallangan biznes-reja ko'rsatkichlarini o'z vaqtida va sifatli bajarilishini;

**har chorak** yakuni bo'yicha biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilishi to'g'risidagi hisobotini Davlat aktivlarini boshqarish agentligining veb-saytiga ([kpi.davaktiv.uz](http://kpi.davaktiv.uz)) elektron shaklda kiritib borilishini;

jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati yakuni, jumladan biznes-rejaning asosiy ko'rsatkichlari bajarilishi haqidagi hisobotni har chorakda jamiyat kuzatuv kengashiga taqdim etib borilishini ta'minlasin.

**8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktori o'rribbosari A. Miraliyev zimmasiga yuklansin.**

**Direktor**



**A. Ortikov**